



XIX ASR 2-YARMI XIVA ADABIY MUHITI. MUHAMMAD RAHIMXON FERUZ VA KOMIL XORAZMIY

Husanova Dildora Narzulla qizi

O'zbekiston Milliy universiteti talabasi Navoiy nomidagi davlat stipendianti

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 18.06.2024
Qayta qabul : 24.06.2024
Saytda mavjud : 25.06.2024

Muallif (lar)
D.N. Husanova

Muallif bilan aloqa
 dildorad418@gmail.com

© D.N. Husanova
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti
Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr 2-yarmi Xiva adabiy muhiti haqida, adabiy muhitning o'ziga xos ajralib turuvchi xususiyatlari haqida, o'zbek adabiyoti tarixidagi tutgan o'rni va qo'shgan hissasi haqidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi. Xiva adabiy muhitining ikki yirik vakili Shoh va shoir Feruz hamda yetuk shoir Komil Xorazmiy ijodi, g'azallari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: XIX asr 2-yarmi, Xiva adabiy muhiti, madaniyat, adabiyot, san'at, tarjimachilik, musiqa, tarixnavislik, tazkira, Feruz, Komil Xorazmiy, g'azal.

Abstract: This article analyzes information about the literary environment of Khiva in the second half of the 19th century, its distinctive features, its role and contribution in the history of Uzbek literature. The work and ghazals of two major representatives of Khiva's literary environment, Shah and poet Feruz, and mature poet Kamil Khorezmi will be discussed.

Key words: 2nd half of the 19th century, literary environment of Khiva, culture, literature, art, translation, music, historiography, tazkira, Feruz, Kamil Khorazmiy, ghazal.

Аннотация: В данной статье анализируются сведения о литературной среде Хивы во второй половине XIX века, ее отличительных особенностях, роли и вкладе в историю узбекской литературы. Будут обсуждаться творчество и газели двух крупных представителей литературной среды Хивы – Шаха и поэта Феруза, а также зрелого поэта Камилля Хорезми.

Ключевые слова: 2-я половина XIX века, литературная среда Хивы, культура, литература, искусство, перевод, музыка, историография, тазкаира, Феруз, Камилль Хорезмий, газель.

Ma'rifatparvar Cho'lpon ta'kidlaganidek: "Adabiyot yashasa, millat yashaydi". O'zbekning bir millat bo'lib shakllanishi, bir bayroq ostida birlashishi ham ma'rifat mayog'i bo'lgan adabiyot bilan bevosita bog'liqdir. Adabiyot kuchli badiiy estetik vosita bo'lib, inson ruhiyatiga ta'sir etishda o'ziga xos o'ringa egadir. Bu borada har bir davr adabiyot tarixida o'ziga xos uslubini, maktabini yaratdi. XIX asr 2-yarmi Xiva adabiy muhiti ham kuchli adabiy auru-muhitga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Bu muhit ko'plab shoirlar, xattotlar, tarjima ustalarining shakllanishida muhim omil bo'ldi.

Jumladan, Komil Xorazmiy (1825-1899)¹, Muhammadrasul Mirzo (1840-1922), Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910), Ahmad Tabibiy (1869-1911)², Muhammad Yusuf Bayoniy (1840-1923), Ilyos Mulla Muhammad o'g'li So'fi (1860-1916), Mutrib Xonaxarobiy (1870-1925), Muhammad Yusuf Chokar (1872-1951), Avaz O'tar o'g'li (1884-1919), Abdurazzoq Faqiriy (1884-1925), Safo Mug'anniy (1882-1938), Komiljon Devoniy (1887-1938), Muhammad Rahim Rog'ib (1918 y. vafot etgan) kabi so'z sohiblarining ijod namunalari hozirgi kunga qadar yetib keldi va xalqimiz qalbidan joy olib kelmoqda. Ularning go'zal badiiyatga ega g'azal-u mustahzodlari allaqachon qo'shiqqa aylanib, har bir o'zbek yuragiga yetib borgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunda Xiva adabiy muhitida musiqaga alohida urg'u berilganligini alohida ta'kidlab o'tish zarurdir.

¹ Komil. Devon (Nashrga tayyorlovchilar: A.Хайитметов, V.Мо'minoва). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi ASN, 1975. – 224 b.

Xiva adabiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni talqin qilish mumkin:

1. Madaniyat, adabiyot, san'at taraqqiy etdi. Bu bevosita Feruz nomi bilan bog'liqdir. Shoir va tarixchi Bayoniy shoh va shoir Feruz zamonida ko'plab madrasalar qurilganini, matbaachilik yo'lga qo'yilganini, kitobxonlik avj olganini, xonning o'zi bularning barchasiga bosh-qosh bo'lganini yozadi. Bayoniyning «Shajarayi. Xorazmshohiy»sidan: «Xon hazratlari haftada ikki kun: juma va dushanba oqshomlarida ulamo bilan suhbat tuzub, kitobxonliq etdurur erdilar. Andog'kim, Yusufhoji oxund va Ismoilxo'ja oxund va Xudoybergan oxund va olimu ulum ma'qul va manqulda Mullo Muhammadrasul va faqiri haqir majlisi humoyunlarig'a haftada ikki martaba hozir bo'lub, kitobxonliq etar erduk. Goho domla Muhammadrasul bila ikkovimiz kirib, suhbat humoyunlarida kitobxonliq bo'lur erdi va sipohiylar va to'ralarni ham kitobxonliq etarga targ'ib etar erdilar. Bas, hamma kitobxon bo'ldilar». Shoirlikning havosi ham, maqomi ham baland edi. Xonning atrofidagi amaldorlaridan, aka-uka qarindoshlarigacha she'r yozar edilar.

² Tabibiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1968. – 228 b.

2. Tarjimachilik yuqori bosqichga ko'tarildi. Feruz³ tashabbusi bilan Xorazm tarjima maktabi maydonga keldi. Mutaxassislarining aniqlashicha, XIX asrning o'rtalarida Xivada saksondan ko'proq kishi tarjimonlik bilan muntazam shutullangan. 120 asar tarjima qilingan. Ayrimlari 2—5 marta o'zbekchaga ag'darilgan. Aksariyati fors-tojik tilidan o'girilgan. Bu asarlar janrlariga ko'ra ham xilma-xil edi. Ular orasida badiiydidaktik asarlar, ishqiy-sarguzasht qissalar katta o'rin egallagan edi. Ogahiy yigirmadan ortiq asarni fors tilidan o'zbekchaga o'girdi. XIX asrning 2-yarmi - XX asr⁴ boshlarida esa bu an'anani Tabibiy va Bayoniy davom ettirdilar.

3. Saroyda rasmiy-adabiy maktab shakllandi. Maktab rahnamosi sifatida Ogahiy saylandi.

4. Boy an'anaga ega musiqa rivoj topdi. Tanbur notasi kashf qilindi (Kamil). She'r va musiqa hamkorligi kuchaydi. Feruz Xorazm shashmaqomini taraqqiy toptiryudda katta xizmat qildi. Xonning amri bilan shoir Ahmad Tabibiy tomonidan 1908-yili yaratilgan «Majmuatush-shuaro» («Shoirlar to'plami») she'riy (masnaviy yo'lida) bo'lib, 1638 sahifadan iborat edi.

5. Lirik janrlar ko'lami ortdi. Adabiy muhit vakili Ahmad Tabibiyning 23 janrda ijod qilganligi ilmiy asoslangan⁵.

6. Tarixnavislik rivoj topdi, tarixiy asarlarning ko'lami ortdi. Birgina

Ogahiyning o'zida 6 tarixiy asar⁶ning uchrashi bunga misoldir.

7. Tazkira yozish an'anasi qayta tiklandi. Bu manbalar Xorazm adabiyoti tarixiga oid birlamchi manabalar sifatida qaraladi. (Ahmad Tabibiy (1869-1911) «Majmuatush-shuaro» Feruzshohiy) («Feruzshoh shoirlari antologiyasi»), Muhammad Yusuf Bayoniy («Shajarayi Xorazmshohiy»), Hasanmurod Laffasiy («Xiva shoirlarining va adabiyotchilarining tarjimai holi»), Bobojon Tarroh («Xorazm navozandalari») va boshqalar).

Muhammad Rahimxon Soniy Feruz⁷ - buyuk davlat arbobi, atoqli shoir, madaniyat va san'at homiysi, ma'rifatparvar. Feruzning Xorazm xoni sifatidagi faoliyati Vatanimiz tarixining eng murakkab va ziddiyatli davriga to'g'ri keldi. Markaziy Osiyo Rusiya istibdodi girdobiga tushgan bu davrda u davlatni nihoyatda tadbirkorlik bilan boshqardi. Adabiyot, san'at, ilm-fan va maorifni rivojlantirishga rahnamolik qildi. Xivada bevosita uning tashabbusi bilan madaniy-ma'rifiy, adabiy muhit yuzaga keldi.

Feruzning bir qator she'rlarida Vatanning ko'rkam bahori, uning go'zal tarovati, oshiqning ma'shuqa qadamiga gul barglaridan poyonoz to'shab, intizor kutishi nihoyatda ta'sirli ifodalangan.

³ Feruz. Elga shohu ishqqa qul. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1994. – 160 b.

⁴ Xorazm davlatchiligi tarixi. – Urganch, 2009. – 321 b.

⁵ Amonov Sh. Ahmad Tabibiy tarjebandlarining matnii xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2022, – №2. – B. 48-52. Komil.

⁶ Laffasiy, Hasanmurod. Tazkirai shuaro. – Urganch: Xorazm, 1992. – 120 b.

⁷ Feruz gulshani. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2016. – 84 b.

«Fasli gul» - bahorning kelishi bog'larga o'zgacha bir ziynat bag'ishlaydi. Shoir bunday go'zal tabiatni g'animat bilib, undan bahramand bo'lishga da'vat etadi. U mohir musavvir kabi bahor lavhasini va unga monand ma'shuqaning betakror go'zal qiyofasini chizadi. Bahor kelishi bilan tabiat, borliq butun go'zalligini namoyish etar ekan, ma'shuqaning ham o'z jamolidan «burqa» - pardani olib, oshiq ko'zlarini ravshan qilishini iltijo etadi:

*Ochilmish gul, yeturmish bog'a ziynat,
ey sanam, kelgil,*

*Icharga bir nafas ahbob birla jomi Jam,
kelgil...*

Jamshid jomi haqida adabiyotlarda quyidagi ma'lumotlar keladi. Alisher Navoiy «Tarixi anbiyo va hukamo» asarida Jamshid saltanatining taraqqiyoti va tanazzuli haqida ma'lumot bergan. Mutasavviflar g'ayb asroridan voqif qalbni «jomi jam»ga o'xshatishgan. Irfoniy adabiyotdagi «jom sharobi» ilohiy sirlarni oshkor qilishi bilan «jomi jahonnamo»ga qiyos qilingan. Solik bu «jomi jahonnamo»ga nazar solib, uning sirlaridan ogoh bo'ladi hamda qalbini g'urur va o'zligidan xalos etib, do'st ishq bilan limmo-lim to'ldiradi⁸. Demak, shoir yordan kelishini so'rar ekan, bahor kelib, bog'lar o'zgacha ziynatlanganini, turfa gullar ochilganini aytib yordan do'stlik ila, ishq ila limmo-lim jom birla kelishini ta'kidlaydi. G'azal aruzning hazaji musammani solim vaznida yozilgan bo'lib, bu mazmun, ohang va ritmning o'zaro uyg'unlashishiga katta yordam bergan.

⁸ Usmonov I, Olimov S, Yo'ldashxo'djayev H, Faxriddinov Z, To'ychiyeva N, Jabborov N, Cho'tmatov J, Rahimov K, Komiljonova Z, Karimova

*To'shab bargini gul yer uzra, tortar
intizoringni,*

*Guliston ichra gul bargi uza qo'yub
qadam, kelgil.*

*Havodur mo'tadil, ham fasli guldur,
kecha ham mahtob,*

*Tuzub majlis, icharga lolagun may
dam-badam kelgil...*

*Olib burqa' jamolingdin qilurg'a
ko'zlarim ravshan,*

*Jafou javru zulmingni qilib bir
lahza kam, kelgil.*

*Gahi aylab bahona gul terarga, bu
haziningni*

*Qilurg'a xayli ushshoq ichra, jono,
muhtaram, kelgil.*

*Sanga Feruz erur bir qul, vale
hajringdadur noshod,*

*Bu qulni shod etarga, ey, nigori
muhtasham, kelgil.*

Xiva adabiy muhitining yana bir yorqin namayondasi ham siyosatda, ham adabiyotda o'z faolligini ko'rsata olgan, shoir, xattot, bastakor, musiqashunos, tajimon, davlat arbobi Komil Xorazmiydir. Shoir sifatida Komil Xorazmiy o'zidan unutilmas badiiy lirika qoldira oldi. Komil Xorazmiy ijtimoiy lirikasida jamiyatdagi, ayniqsa, shoir faoliyat yuritishga majbur bo'lgan saroy muhitidagi ilm-hunar ahliga, sof qalbli insonlarga nohaq munosabat, ularni ta'qib va tahqir etish hollari zo'r iztirob

S, Nurmuhammedov D, Erkaboyeva F, Jurayev O Turdiyeva D.. Tasavvuf atamallari. Movarounnahr nashriyoti, 2015 — 360 bet.

bilan tasvirlanadi. Komil Xorazmiy lirikasida muhabbat mavzusi ayricha o‘rin tutadi. Shoir bu mavzuda g‘azal, murabba’, muxammas, mustazod, masnaviy, musabba’ va boshqa shakllarda ko‘plab asarlar yaratgan.

Sharq mumtoz she‘riyatining eng yaxshi an‘analari ruhida kamol topgan bu ulkan qalam sohibining muhabbat lirikasida, bir tomondan Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy kabi azamat shoirlar yaratgan she‘riy timsollardan mahorat bilan foydalanilsa, ikkinchi tomondan, ularda Komil qalamigagina xos bo‘lgan noyob timsollarni, xilma-xil badiiy kashfiyotlarni ko‘ramiz.

Olam ahlidin vafo osorini qilmang gumon,

Naqd umrim sarf etib qildim alarni imtihon,

Uzlat istab ahli olamdin qoching boricha jon,

Oshnolig‘ aylabon o‘z joningizg‘a har zamon,

Boisi yuz ming balou mehnatu g‘am bo‘lmangiz.

Bu taxmis Navoiyning “Bo‘lmangiz” radifli g‘azaliga bog‘lab yozilgan bo‘lsa-da, shoir badiiy mahorati natijasida o‘ziga xos ohoriylik kasb etadi. Yuqoridagi 3 misra oxirgi 2 misra bilan go‘zal uyg‘unlikka kirishadi.

Shoirning quyidagi “Lola” radifli g‘azali ham boshdan oyoq lolaga berilgan ta‘riflar va husni ta‘lilning go‘zal namunasi ekanligi bilan alohida ajralib turadi.

Yuzu xoling g‘amidin gar emastur notavon lola,

Nedin bo‘lmish hamisha siyna dog‘u bag‘ri qon lola.

Yor shu qadar go‘zalki, uning bu husnidan oshiqqlar g‘am chekadi, yuzi-yu xoli, noz-u g‘amzalari oldida so‘z ayta olishiyadi.

Oshiq lolani korib, uning holiga hayron holda aytmoqda. Ey yor, sening hajringda bu lolaning siyna-yu bag‘ri qizil qondek tusga kirmasa, yana boshqa nima sabab bolishi mumkin?! Ya‘ni uning rangi qizil bolishiga sening husning hajrida firoq chekishi sababdir.

Xijolatmandi xolu orazing ermas esa nechun,

Qo‘yub gulshanni dashtu tog‘ aro tutmish makon lola.

Tabiiyki, lola, asosan, tog‘- u dashtlarda o‘sadi. G‘azalda bu holat ham shoirona tarzda go‘zal dalillanadi. Agar lola sening go‘zalliging oldida xijolat chekmasa edi, hamma gullar maskani gulshan bo‘lgani holda o‘zi yolg‘iz tog‘- u dashtlarni makon tutarmidi?

Bo‘yoldi qong‘a g‘amzang tirboronidin ul go‘yo,

Qochib Ko‘hsor g‘orin anglamish dorilamon lola.

Tunu kun davr etib hech ko‘rmadilar dashtu gulshanda,

Yuzingda sab‘ai sayyora birla osmon lola.

Uchinchi baytda ham yuqoridagi mazmun davom etadi. Lola yorning g‘amzalaridan qochib Ko‘hsor g‘origa bormish va u yerni o‘zi uchun eng baxtli, dorilomon joy deb anglamish. Keying baytda ham ohoriy tashbeh beriladi. Yorning go‘zalligidan lola berkingan bolib, endi uni hatto dashtda ham, gulshanda ham topib bo‘lmay qoldi. Bu go‘yoki osmondagi sab‘ayi sayyora, ya‘ni yetti kezuvchi, yetti qaroqchi yulduzga ishora bo‘lib, ular doim o‘z

o‘rnini o‘zgartirib turadi. Bu go‘yoki lolaning qochib yurishiga ishoradir.

Ochibmu bog‘ aro ustida gullar sarv yo shamshod,

Boshig‘a qistirubmu yoki ul sori ravon lola.

Qadam qo‘y sarvning boshi uza, ey sho‘x, gulshanda,

Ki to bilsun seni bir xisravi oliy makon lola.

Keying baytlarda lola va yor o‘rtasidagi munosabatlar iliqlashtiriladi. Bog‘da gullarning qaysi biri sarvdek tik bo‘ldi-yu, lolani ular boshlariga qistirishsa. Ey yor, sen osha gulshanga kelginki, yuzing go‘zalligidan sarv ustiga quyosh kabi qo‘ngin. Lola esa seni oliy makonga loyiqligingni bilsin.

Chamanda xizmat uchun bir ayoqda tik turub shamshod,

Tutar yo‘lingda nargisdin qo‘lida sham‘don lola.

Lola sening go‘zalligingni tan olgan holda chamanda sen uchun hatto bir oyoqda (lolaning alifdek qomatiga ishora) xizmatga bel boyladi. Yolingni yoritmoq uchun gullarning a‘losi nargisni shamdon qilib senga yo‘l ko‘rsatmoqchi.

Ko‘ngul dog‘ini ko‘rsatmak ko‘zungga mumkin ermastur,

Agar ko‘rmak tilarsan bordurur andin nishon lola.

Oshiq g‘amingda ozor chekib, ko‘ngliga dog‘ tushdi. Lekin sen bu dog‘ni ko‘rmaysan,

anglamaysan. Ammo agar buni ko‘rishni istasang, lolaga biror nazar solgin, unda bu sitamlardan nishona bordir. Bu yerda ham lolaning qizilligi husni ta‘lil orqali go‘zal ifodalangan.

Ani hech gulga tashbih aylamas Komil kishi mundin,

Birin bosh uzra qo‘ysang ismi zot aylar ayon lola.

Ey komil, bundan keyin hech kim yorni biror gulga tashbeh – o‘xshatish qilolmaydi, chunki lola eng go‘zal o‘xshatishlar sohibi bo‘ldi, biri bosh uzra undan o‘tishga harakat qilsa, lola bundan arz qiladi. Umuman, Komil Xorazmiy ijodi, ayniqsa, g‘azaliyoti o‘ziga xos uslubi bilan alohida ajralib turadi. Shu boisdan bo‘lsa kerakki, shoirning ko‘plab g‘azallari allaqachon xalqimizning sevimli qo‘shiqlariga aylanib ulgurgan.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm adabiy muhiti, darhaqiqat, o‘ziga xos adabiy maktab yarata olgan va o‘zbek adabiyoti tarixida muhim iz qoldirgan adabiy jarayondir. Davr muhitini o‘rganishda, keng tadqiqotlar olib borishda, badiiy adabiyotning asosiy vazifasi bo‘lmish tuyg‘ularga ta‘sir etib ruhiyatni tarbiyalash funksiyasiga javob beruvchi asarlar va ijod namunalari bu muhitda ko‘plab yaratilgan va hozir zamon uchun ham bu asarlar juda ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amonov Sh. Ahmad Tabibiy tarje‘bandlarining matniy xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2022, – №2. – B. 48-52. Komil.
2. Feruz gulshani. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016. – 84 b.
3. Feruz. Elga shohu ishqqa qul. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1994. – 160 b.

4. Komil. Devon (Nashrga tayyorlovchilar: A.Ҳайитметов, V.Мо‘minova). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi ASN, 1975. – 224 b.
5. Laffasiy, Hasanmurod. Tazkirai shuaro. – Urganch: Xorazm, 1992. – 120 b.
6. Tabibiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1968. – 228 b.
7. Usmonov I, Olimov S, Yo‘ldashxo‘djayev H, Faxriddinov Z, To‘ychiyeva N, Jabborov N, Cho‘tmatov J, Rahimov K, Komiljonova Z, Karimova S, Nurmuhammedov D, Erkaboyeva F, Jurayev O Turdiyeva D.. Tasavvuf atamalari. Movarounnahr nashriyoti, 2015 — 360 bet.
8. Xorazm davlatchiligi tarixi. – Urganch, 2009. – 321 b.